“YUSUF” SURASI VA “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONLARIDAGI SYUJET, OBRAZ VA G'OYAVIY MUSHTARAKLIK

Qosimova Mushtariy Nurilla qizi
Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti
2-bosqich talabasi
mushtariyqosimova08@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Yusuf” surasi va Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni syujeti, obrazlari hamda badiiy-estetik xususiyatlari qiyosiy o'rganilgan. Diniy manba va badiiy asar o'rtasidagi mushtarak va farqli jihatlar ilmiy asoslangan. Olib borilgan qiyosiy tahlillar umumlashtirilib, doston Qur'oni Karimdagi suraning milliy badiiy tafakkur asosidagi badiiy talqini ekani dalillangan.

Kalit so'zlar: Yusuf surasi, Yusuf va Zulayho, Durbek, syujet, obraz, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В исследовании сопоставляются сюжет, образы и идейные основы суры Юсуф и дастана Дурбека Юсуф и Зулайха. Цель состоит в выявлении общих и отличительных черт религиозного повествования и художественного произведения. Анализ источников, сравнение и обобщение показывают, что дастан переосмысливает кораническую историю средствами национальной поэтики.

Ключевые слова: сура Юсуф, Юсуф и Зулайха, Дурбек, сюжет, образ, сравнительный анализ.

Abstract. The study compares the plot, characters, and ideas of the Yusuf surah and Durbek's poem Yusuf and Zulayho. Its aim is to identify common and distinctive features between the religious narrative and the literary work. Source analysis, comparison, and generalisation show that the poem reinterprets the Quranic story through Uzbek poetic traditions.

Keywords: Yusuf surah, Yusuf and Zulayho, Durbek, plot, character, comparative analysis.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf adabiyoti, hech shubxasiz, Qur’oni Karim asosida shakllangan. Tabiiyki, diniy manbalardan oziqlangan syujetlarning ijodkor tomonidan badiiy qayta ishlanishi alohida kuzatishni talab qiladi. “Yusuf” surasi dinimizning muqaddas kitobi – Qur’oni Karimdagi izchil, obrazlarga boy va eng go‘zal sura bo'lib, uning asosida turkiy xalqlar adabiyotida bir necha asarlar yaratilgan. Durbekning XIV–XV asrlar chegarasida yaratilgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ushbu an'ananing davomi, yetuk namunalaridan biridir.

O'zbekistonning ta'lim siyosatida milliy adabiy merosni o'rganish, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish vazifasi belgilangan [1]. Shu bilan birga, O'zbek tilining tarixiy va badiiy imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan davlat siyosati ham mumtoz matnlarni yangicha o'qishni talab qilmoqda [2]. “Yusuf” surasi va “Yusuf va Zulayho” dostoni syujetidagi mushtarak nuqtalarni taqlid sifatida baholash, bizningcha, to‘g‘ri emas. Aslida, ijodkor Qur'on syujetini o'z davri g‘oyaviy-estetik qarashlari bilan boyitib, yangi talqin yaratgan. Ushbu tezisning maqsadi syujet qurilishi, obrazlar tizimi va g'oyaviy mushtaraklikni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Tadqiqotda obyekt sifatida “Yusuf” surasining o'zbekcha tarjimasi, Durbek dostoni va mumtoz adabiyot tarixiga oid ilmiy manbalar asos qilib olindi. Matnlarni tahlil qilishda qiyoslash, tarixiy-adabiy yondashuv, obrazlar harakatini kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qur'on qissasining asosiy voqealari Yusufning akalari tomonidan quduqqa tashlanishi, Misrga olib ketilishi, Zulayhoning unga mayl

bildirishi, qahramonning tuhmat sabab zindonga tushishi, tushlarni ta'bir qilishi va yakunda hokimiyatga ko'tarilishi bilan bog'langan. Durbek shu voqealar tizimini saqlaydi, biroq doston janrining talablari tufayli tasvirlarni kengaytiradi. Unda qahramonlarning kechinmalari, suhbatlari va ishqiy holatlari batafsilroq beriladi. Shuningdek, dostonning badiiy tili xalqona iboralar, tasviriy vositalar va tasavvufiy ishoralar bilan boyiydi.

Syujet masalasida ikki manba o'rtasidagi aloqa aniq ko'rinadi. Birinchidan, har ikkala asarda markaziy sinov Yusufning go'zalligi va pokligi bilan bog'lanadi. U hasad, ayriliq, tuhmat va hokimiyat kabi bosqichlardan o'tadi. Ikkinchidan, voqealar tashqi sarguzashtlardan ko'ra qahramonning ma'naviy yetilishi tomon yo'naltiriladi. Qur'on surasida voqealar ixcham, ibratli va ilohiy iroda asosida bayon qilinadi. Durbek esa shu asosni ishqiy-romantik doston shaklida kengaytirib, Zulayhoning ruhiy holatini markazga yaqinlashtiradi. Dostonda tush, maktub, vasf va dialoglar syujetni harakatga keltiruvchi vositalardir. Bu usul o'zbek dostonchilik an'anasi bilan bog'liq. Durbekning asari Nizomiy, Jomiy kabi salaflar yaratgan Yusuf mavzusining turkiy muhitdagi davomidir, ammo u voqealarni mahalliy badiiy didga moslaydi.

Natijalar va muhokama. Obrazlar tizimi qiyoslanganda quyidagi natijalar aniqlandi: 1) Yusuf obrazi ikkala manbada ham husn, sabr, iff at va kechirim timsolidir. Uning kuchi jismoniy ustunlikda emas, sinov paytida o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Qur'onda Yusufning payg'ambarlik maqomi va ilohiy bilimga egaligi oldinga chiqsa, dostonda uning oshiq, sadoqatli inson va dono hukmdor sifatidagi qirralari keng tasvirlanadi; 2) Zulayho obrazi Qur'on surasida ismi bilan emas, Misr azizining xotini sifatida beriladi. Durbek esa uni mustaqil badiiy qahramonga aylantiradi. Uning mayli dastlab nafsiy istakka yaqin ko'rinsa-da, keyinchalik pushaymonlik, sabr va ma'rifat yo'liga o'tadi; 3) Yusufning akalari, Ya'qub, Misr azizi va zindon ahli voqealar rivojiga xizmat qiluvchi obrazlardir. Ya'qub ayriliqdagi ota, Yusuf esa uning sabrini oqlaydigan farzand sifatida talqin qilinadi.

G'oyaviy bog'liqlikning markazida sinov orqali komillikka erishish g'oyasi turadi. Hasad yomonlikning boshlanishi, yolg'on esa vaqtincha ustunlik beruvchi, lekin oxir-oqibat fosh bo'luvchi kuch sifatida ko'rsatiladi. Yusufning kechirimi dushmanga nisbatan nafratni emas, insoniylikni tanlash kerakligini anglatadi. Durbek bu fikrni ishq mavzusi bilan birlashtiradi. Zulayho muhabbati orqali insonning ichki o'zgarishini ko'rsatish maqsad qilinadi. Shu jihatdan doston Qur'on qissasining mazmunini takrorlamaydi, balki uning axloqiy yadrosini badiiy tafakkur vositasida sharhlaydi. Mumtoz adabiyotda payg'ambarlar qissalarining dostonlarga aylanishi xalqning diniy tasavvurlari bilan estetik ehtiyojlari birlashganini ko'rsatadi. Bizningcha, dostonning mustaqil qimmati aynan shu qayta talqinda namoyon bo'ladi: muqaddas manbadagi ixcham voqea inson ruhiyati tasviri bilan to'ldiriladi.

Xulosa. Tahlil natijasida “Yusuf” surasi va “Yusuf va Zulayho” dostoni o'rtasidagi bog'liqlik syujetning asosiy o'qi, qahramonlar taqdiri va axloqiy mazmunda saqlangani aniqlandi. Farq esa bayon ko'lami, Zulayho obrazining kengaytirilishi, ishqiy kechinmalarning kuchaytirilishi va voqealarning doston janriga moslashtirilishida ko'rinadi. Yusuf obrazi poklik va sabrni, Ya'qub obrazi sadoqatni, Zulayho esa ruhiy o'zgarish imkonini ifodalaydi. Shu mavzuni oliy ta'limda o'rganishda avval Qur'on qissasining mazmuniy asoslari, keyin dostonning badiiy talqini qiyoslanishi lozim. Bunday tartib manba va badiiy asar o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatadi hamda talabalarni matnni mustaqil tahlil qilishga yo'naltiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
3. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: Cho'lpon, 1992.
4. Durbek. Yusuf va Zulayho. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
5. Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии. – М.: Наука, 1985.
6. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy ildizlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.